

INVESTITSİYALAR SAMARADORLIGI VA UNI VAQT KONSEPSIYASI ASOSIDA INVESTITSION DAROMADLARNI HISOBLASH VA BAHOLASH.

S.M.Arslanbekov, TDTU,
Transport iqtisodiyoti
kafedrası dotsenti.

J. J.Abdulakimov, TDU talabasi

Tayanch iboralar: loyixa samarasi, samarani xisoblash, mezonlari, oddiy usul, dinamik usul, taqqoslash mezonlari: NPV; IRR; ID; NFV, pulni davriy qiymatiga ta'sir etuvchi omillar, pulni qadri, diskontlash, . APR va EFF tushunchalar, inflyatsiya, inflyatsiya sharoitdagi daromad, investitsion qaror, qarorlarni baxolash: (ARV, GFS, WACC, annuitet, investitsion daromad va soliqlar.

Iqtisodiyotning bozor munosabatlariga o'tishidan avval kapital qo'yilmalar va yangi texnikaning mutloq va solishtirma iqtisodiy samaradorligi usullari keng qo'llangan. Ularga investitsiyalar ob'ektini yaratish va amalga oshirish natijasida olish mumkin bo'lgan xalq xo'jaligi samarasi ko'rsatkichi asos qilib olingan.

Mutloq iqtisodiy samaradorlik foydaning (tannarxning pasayishi va b.) unga sabab bo'lgan potensial qo'yilmalarga nisbati sifatida hisob-kitob qilinadi. Solishtirma iqtisodiy samaradorlik keltirilgan xarajatlar usuli bilan hisob-kitob qilinadi. Bu usul kapital qo'yilmalar yoki unga teskari ko'rsatkich – diskontlash va keltirilgan xarajatlarni hisoblash uchun har xil ahamiyatga ega bo'lgan samaradorlik normativ koeffitsientining direktiva asosida belgilangan o'zini qoplash normativ muddatidan foydalanishga asoslanadi.

Investitsiya loyihalari samaradorligini baholash bo'yicha uslubiy tavsiyalarda samaradorlikning quyidagi turlari ajratib ko'rsatiladi: ----butun loyiha samaradorligi, iqtisodiy nuqtai nazardan – texnik, texnologik va tashkiliy loyiha yechimlarini, loyihaning qatnashchilar uchun potensial jozibadorligini, ijtimoiy iqtisodiy va tijorat samaradorligini aniqlagan holda moliyalashtirish manbalarini izlab topishni tavsiflaydi;

loyihada qatnashish samaradorligi, korxonalarning loyihada, – aksiyalarga investitsiyalashda ishtirok etish natijalarini, shuningdek, investitsiyalar loyihasi

qatnashchisi bo'lgan korxonalarga nisbatan yuqori darajadagi to'zilmalarning ishtiroki, jumladan, ayrim mintaqalar va butun xalq xo'jaligi uchun mintaqaviy va xalq xo'jaligi samaradorligini, xalq xo'jaligining ayrim tarmoqlari, moliya-sanoat guruhleri, korxona va xolding to'zilmalari birlashmalari uchun – tarmoq samaradorligini va barcha darajadagi daromad va xarajatlar nuqtai nazaridan davlat ishtirokida – byudjet samaradorligini qamrab oladi.

Investitsiya loyihalarini baholash uchun foydalaniladigan ko'rsatkichlar ularni qo'llashning asosiy jihatlari va shartlarini aks ettirishi lozim. Bu ko'rsatkichlarni ular turli-tuman bo'lgani holda quyidagi guruhlariga birlashtirish mumkin: moliyaviy iqtisodiy, normativ, resurs ko'rsatkichlari va hokazolar.

Moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlar qatoriga loyiha qiymati, diskontlash yo'li bilan olingan sof joriy qiymat, foyda, rentabellik (investitsiyalar qaytimi), ichki foyda me'yori (loyiha bo'yicha tushumlar joriy hajmi investitsiyalar joriy qiymatiga, sof joriy qiymat ko'rsatkichi esa nolga teng bo'lgan koeffitsient), o'zini qoplash davri va hokazolar. Normativ ko'rsatkichlar qatoriga esa huquqiy ko'rsatkichlar (milliy va xalqaro huquq me'yorlari), konvensiyalar va standart talablari, patent layoqati va intellektual mulk huquqiga amal qilishning boshqa shartlarini kiritish mumkin. Ulardan birontasiga amal qilmaslik samarali loyihani bajarib bo'lmaydigan qilishi mumkin.

Resurs ko'rsatkichlari ham loyihani amalga oshirishning potensial imkoniyatini belgilab beradi. Ular quyidagi guruhlariga taqsimlanadi: ilmiy-texnik resurslar – kerakli ilmiy-texnik asoslarning, mos keluvchi malakali mutaxassislar mavjudligi; ishlab chiqarish resurslari –ushbu loyihani amalga oshirish uchun ishlab chiqarish quvvatlari va moddiy resurslar mavjudligi; texnologik variantlar – raqobatlashuvchi texnologiyalarni baholash; moliyaviy resurslar hajmi va manbalari va hokazolar.

Hozirgi paytda xorijiy, shuningdek, mamlakatimiz amaliyotida foydalanilayotgan bir qator usullarni ikkita asosiy guruhga birlashtirish mumkin.

Birinchi guruhni investitsiya loyihalarini baholashning statik usullari (ba'zida oddiy yoki an'anaviy deb ham ataladi) tashkil qiladi: konsepsiya, diskontlashdan, jumladan, kapitalga foyda me'yori (o'rtacha, hisob-kitob yoki yillik) investitsiyalarning o'zini

qoplash muddati, zararsizlik nuqtasini topish va boshqalardan foydalanishni ko'zda tutmaydigan usullar.

Ikkinchi guruh joriy qiymat (sof keltirilgan qiymat) usuli, ichki foydalilik (daromadlilik) me'yori, diskontlangan o'zini qoplash davri, investitsiyalar rentabelligi, annuitet kabi diskontlashdan foydalanishga asoslangan dinamik usullar kiradi.

Aniq loyiha uni amalga oshirish maqsadga muvofiqligidan, uning iqtisodiy va moliyaviy samaradorligidan, ishlab chiqarish va ijtimoiy mulohazalarga ko'ra amalga oshirish imkoniyatlari va maqbo'lligidan, tarmoqni rivojlantirishning strategik vazifalariga muvofiqligidan kelib chiqqan holda bosqichma-bosqich tanlab olinadi:

- birinchi bosqichda – loyiha aniq tarmoq va mintaqani rivojlantirish ustuvorliklaridan kelib chiqqan holda oldindan baholanadi;

- ikkinchi bosqichda – loyiha iqtisodiyotning ayrim tarmoqlari va mintaqalarini rivojlantirish ustuvorliklardan kelib chiqqan holda, tanlab olinadi.

Aniq dasturga iqtisodiy jihatdan samarasiz investitsion loyihalarni, shuningdek, ilgari jalb qilingan kreditlar bo'yicha muddati o'tkazib yuborilgan qarzi bo'lgan korxonalar loyihalarni kiritish ta'qiqlanadi.

Quyidagilar birinchi bosqichda loyihaning ustivorligini belgilashning mezonlari hisoblanadi:

- loyihaning tarmoqni rivojlantirish strategiyasiga muvofiqligi; - moliyaviy va iqtisodiy samaradorlik;

- mahalliy xom – ashyodan va butlovchi buyumlardan foydalanish darajasi; - tayyorlangan mutaxassslarning mavjudligi;

- loyihaning amalga oshirishga tayyorlanganligi darajasi; - ishga tushirilgandan keyin foydalanish xarajatlari.

Har bir mezonning muhimligi darajasi tarmoqni rivojlantirish strategiyasini hisobga olgan holda O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot vazirligi tomonidan belgilanadi.

Ikkinchi bosqichda uch yillik davrda respublika iqtisodiyotidagi tarkibiy o'zgartirishlar prognozi muvofiq qo'shimcha ravishda quyidagi mezonlar hisobga olinadi:

- tarmoq (mintaqa) ning istiqboldagi prognoz o'sish sur'atlari;

- eksport salohiyatining prognoz o'sish sur'atlari;

- tarmoqning umuman respublika bo'yicha makroiqtisodiyot ko'rsatkichlariga ta'sirining o'zgarishi; - tarkibiy omillar;

- ilgari quyilgan investitsiyalar samaradorligi;

- asosiy fondlar ahvoli va quvvatlardan foydalanish darajasi;

- loyihaning ijtimoiy ahamiyati.

Ikkinchi bosqichda tanlab olish natijalariga ko'ra dasturga kiritilgan ob'ektlarning aniq dasturi shakllantiriladi. Dasturni va investitsiya loyihalarni amalga oshirishning birinchi yili ko'rsatkichlari mavjud moliyaviy resurslar va boshqa resurslar bilan o'zaro bog'langan bo'lishi kerak hamda birinchi moliyaviy yilda o'zgartirilmaydi.

Dasturni va investitsiya loyihalarni amalga oshirishning ikkinchi va keyingi yillari ko'rsatkichlari har yili aniqlashtirilishi kerak, bunda boshlanmagan loyihalarni bir qismi yangi loyihalarda almashtirilishi mumkin.

Dasturning yig'ma ro'yxatiga vazirliklar va idoralar, Qoraqaopog'iston Respublika Vazirlar Kengashi, viloyatlar, Toshkent shahar xoqimliklari, mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar korxonalar va tashkilotlarning ustivor investitsiya takliflari kiritiladi.

Adabiyotlar:

1. Арсланбеков С.М. Хорижий инвестицияларни жалб қилиш омиллари. Монография- ТДТУ, 2023, 202бет.

2. Надирханов У.С., Арсланбеков С.М., Шаназарова Н.Б. Хорижий инвестициялар. Ўқув қўлланма.- Андижон: “Омадбек print number one” наширёти, 2024, 118бет

.